



Pedagogik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish

Ergasheva Sevinch

Nizomiy nomidagi TDPU Testologiya

va pedagogik o'lchovlarni baholash

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Tashxisning mohiyati shundaki, bunda o'qituvchi o'z faoliyatining tadqiqotchisi. Tashxis bu o'z-o'zini bilishning kuchli instrumentiga aylanadi. O'zini bilish kasbiy mohoratni takomillashtirishning muhim sharti va asosi hisoblanadi. Chunki aynan kasbiy o'z-o'zini anglash pedagogik mahoratning tarkibiy qismi va o'qituvchi shaxsining rivojlanganlik mezoni hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Ilm-fan, texnika-texnologiyalar, tashxis, o'z-o'zini tahlil qilish, o'qituvchilar empatiyasi, korrektsiya jarayoni.

Аннотация: Сущность диагноза состоит в том, что педагог является исследователем своей деятельности. Диагностика становится мощным инструментом самопознания. Самопознание считается важным условием и основой совершенствования профессиональных навыков. Потому что профессиональное самосознание является составной частью педагогического мастерства и критерием развития личности педагога.

Ключевые слова: Наука, техника, диагностика, самоанализ, сопереживание учителя, процесс коррекции.

Abstract: The essence of the diagnosis is that the teacher is a researcher of his activities. Diagnostics becomes a powerful tool for self-knowledge. Selfawareness is



considered an important condition and basis for improving professional skills. Because it is professional self-awareness that is a component of pedagogical mastery and a criterion for the development of a teacher's personality.

Key words: Science, technology, diagnostics, self-analysis, teacher empathy, correctional process.

Ilm-fan, texnika-texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yuksak malakali, yetuk kadrlarga bo'lgan talab oshib bormoqdaki, bu o'z navbatida, nafaqat maktab, kasb-hunar kollej o'qituvchilari, balki oliy ta'lim muassasalari professor o'qituvchilari zimmasiga ham ma'suliyatli vazifani yuklaydi.

O'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan munosabati muxim o'rin tutadi. O'qituvchi kasbining mazmun mohiyati uning faoliyatida aks etadi. Buning uchun u bolalarni yaxshi ko'rishi, o'z kasbini dildan sevishi lozim. Bu sifatlar o'qituvchi uchun nafaqat insoniy fazilat, balki kasbiy zarurat hamdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ichki intilish ham o'z-o'zidan o'qituvchining ijodiy ishlashini ta'minlay olmaydi. Buning uchun o'qituvchi eng avvalo mustaqil va ijodiy izlanish texnologiyasi, o'z faoliyatini tahlil qilish, o'z pedagogik tajriyasini o'rganish, umumlashtira olish, o'z shaxsi xususiyatlarini aniqlay olish yo'llari, vositalari va metodlarini bilishi lozim. O'qituvchini shularga o'rgatuvchi vositalardan biri o'z shaxsi va faoliyati, mehnatini o'zi tahlil qilib, yutuq va kamchiliklariga tashxis qo'ya olishi, ya'ni o'z-o'zini pedagogik tashxis asosida o'rganishdir. Biz quyida baxoli qudrat o'qituvchining o'z-o'ziga tashxis qo'yish texnologiyasi ustida to'xtalamiz. O'qituvchi pedagogik faoliyati va shaxsi «tashqi» ekspertlar – maktab rahbarlari, nazoratchilar ishtirokida tashxislash bilan birga, o'z faoliyati va shaxsini o'zi «ichki» tashxislashi ham mumkin. Ishki tashxisning mohiyati shundaki, bunda o'qituvchi o'z faoliyatining tadqiqotchisi. Tashxis esa o'z-o'zini bilishning kuchli instrumentiga aylanadi. O'zini bilish kasbiy mahoratni takomillashtirishning muhim sharti va asosi hisoblanadi. Chunki aynan kasbiy o'z-o'zini



anglash pedagogik mahoratning tarkibiy qismi va o'qituvchi shaxsining rivojlanganlik mezonini hisoblanadi.

O'qituvchida o'z-o'zini rivojlantirish mayllarining shakllanishida o'z-o'zini anglash ko'nikmalarining tarkib topganligi muhim hisoblanadi.

O'z-o'zini kuzatish jarayonida o'qituvchi pedagogik faoliyatining o'ziga xos tomonlarini anglashi sodir bo'ladi. Bular uning shaxsiy sifatleri, qadriyatlariga yo'nalganligi, mayllari va kasbiy hamda ijtimoy munosabatlar tizimida o'z o'rnini aniqlashda ko'rinadi. Pedagogik tashxisning o'z-o'zini kuzatish jarayonida turli emperik ma'lumotlar beradigan metodlaridan foydalanish mumkin. Bunda eng muhimi ishonchli emperik ma'lumot olishdir. Chunonchi, oddiy kuzatish natijalarini «pedagogik kundalik» o'quv jarayoni xronometraji, o'quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasi, pedagogik faoliyatining ayrim bosqichlarini maxsus mezonlar asosida baholash, kasbiy bilim va shaxsiy sifatlarini testlar yordamida aniqlash va hakazo.

Bunda o'z-o'zini kuzatish va ularning natijalarini qiyoslash, ulardagi umumiylik va farqni aniqlashning har bir o'qituvchi o'z ish tajribasida sinab ko'rishi mumkin. Eng muhimi o'z-o'zini kuzatishning muntazamliligi alohida ahamiyatga ega. Doimiy o'z ish tajribasini tahlil qilish, undagi o'zgarishlarni aniqlash, uning yangi qirralarini ochish o'qituvchi hamkorlikda ijodiy ishlashi, izlanishiga asos bo'ladi. O'z-o'zini uzuliksiz kuzatish va olingan natijalarni tahlil qilish o'zini anglash bilan birga muntazam ishlash ko'nikmalarining shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Ta'kidlanganimizdek, isonning o'zini bilishi muntazam jarayon bo'lib, o'zo'zini kuzatishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Uni o'z faoliyatini tahlil qilish bilan mustahkamlash zarur. O'z-o'zini tahlil qilish o'z-o'zini kuzatishdan ancha farq qilib, o'qituvchining o'zi haqidagi ma'lumotlar o'rtasidagi sabab va oqibatli bog'lanishlarni aniqlash imkonini beradi. O'z-o'zini tahlilning asosini aqliy – fikriy jarayon tashkil etib, o'z-o'zini kuzatish jarayonida olingan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish asosida o'z shaxsi va pedagogik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'yilgan maqsad qay darajada



amalga oshganligini, olingan natijani shakllangan shaxsiy sifatlari haqidagi tasavvuri bilan qiyoslash kabi masalalar hal qilinadi.

O'qituvchining o'z-o'zini tahlil qilish bosqichida o'z kasbiy «Men» ining turli modellari taqqoslanadi va o'ziga adektiv baho berish borasida axborotli asos hosil qilinadi. O'z-o'zini tahlilning «fikriy-ichki» jihatini boshqa turli «tashqi» axborotga ishlov berish usullari bilan to'ldirish mumkin. O'qituvchilarni o'zo'zini kuzatishga o'rgatish uchun amalga oshirilgan turli darslar va tarbiyaviy ishlarni o'z-o'zini tahlil metodikasining mohiyatini yaxshi fahmlab oladilar. Buni osonlashtirish uchun o'qituvchining o'z darsini o'zi tahlil qilish sxemasi ishlab chiqildi.

Yuqorida bayon qilingan o'z-o'zini kuzatish va avto tahlil o'qituvchining o'z shaxsi va faoliyatini anglash, bilishiga zamin hozirlab, o'ziga baho berishga olib keladi.

O'ziga baho berish pedagogik tashxis metodi sifatida o'qituvchining o'z-o'zini tahlil qilishi asosida o'z shaxsi va faoliyatiga nisbatan munosabatini aniqlash asosi bo'lib xizmat qiladi. O'ziga baho berish har bir o'qituvchining qator shaxsiy xislatlariga bog'liq. Uning mezonlari esa o'qituvchi real shaxsi va faoliyati darajasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Tadqiqotlarda shaxsning o'zini baholashining uch turi aniqlangan. [1.47] Bular: 1) o'ziga past baho berish bo'lib, o'qituvchi o'zining mavjud imkoniyatlariga to'g'ri baho berolmay, ularni o'zida mavjud darajasidan past deb hisoblaydi. Bunday o'ziga baho berish pedagogning ijtimoiy-psixologik holatiga salbiy ta'sir qiladi va o'z kuchiga ishonmaslik, oqibatida o'z shaxsi va kasbini takomillashtirishga to'siq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida muhim kasbiy nomuvofiqlik kompleksini keltirib chiqaradi hamda o'zini takomillashtirishning faol shakllaridan voz kechishga sabab bo'ladi; o'ziga yuqori baho berish. Bunda o'qituvchi o'z kasbiy imkoniyatlariga yuqori baho berib, o'zini mavjud holatidan ancha yaxshi deb hisoblaydi. Bunday holatda o'qituvchi ma'lum vaqtgacha o'z kuchiga ishonch his qilishi, o'zini boshqalardan yuqori hisoblab, ularga maslaxat berish (o'rgatish) ga harakat qilishi ham mumkin. Ammo bu uzoqqa bormaydi. Ma'lum vaqtdan keyin asossiz ishonch, o'ziga ortiqcha baho berish o'qituvchining pedagogik jamoa



a'zolari bilan munosabatiga putur yetkazib, nizoli vaziyatning paydo bo'lishiga olib keladi.

Oxir oqibatda bu tashqi nizo ichki nizoga olib kelib, hozirgi «Men» bilan istiqboldagi «men» lar o'rtasidagi ziddiyatga asos bo'ladi. Bunday o'ziga yuqori baho berish ijtimoy –psixologik taranglikka sabab bo'lib, o'ziga ishonmaslik, imkoniyatlarini baholay olmaslik kabi nomuvofiqlikka sabab bo'ladi. Bu holatda o'qituvchi kasbiy muhitda o'z o'rnini belgilay olmaydi va o'z kasbidan soviy boshlaydi; o'ziga adekvat baho berish, Adekvat baho o'z imkoniyatlarining haqiqiy holatiga mos kelishida namoyon bo'ladi. O'zi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish o'qituvchining o'z yutuq va kamchiliklarini to'g'ri baholab, ularni bartaraf qilishning aniq yo'llarini belgilash imkoniyatini beradi.

O'qituvchilar empatiyasi (o'qituvchilarni tushunish) esa ancha yuqori bo'lib, o'zgalarni boshqarish (dinamizm) esa ancha past. O'qituvchilarning o'zlariga bergan baholari va ekspertlar bahosi o'rtasidagi nomuvofiqliq qancha yukori bo'lsa, uni boshqalar (ekspertlar) baholash aniqligi ancha past bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, istiqboldagi «Men» bilan hamkasblari «Men» i, ekspertlar bahosi o'rtasidagi farq qancha kam bo'lsa, o'qituvchining o'ziga bergan bahosi shunchalik adekvat bo'ladi. Shunday qilib, o'ziga baho berish adekvatli darajasining oshishi o'qituvchida shaxslararo munosabatlarni idrok qilish darajasining rivojlanganligi yoki kasbiy empatiyaning kuchayganligi, o'qituvchi bilan hamkasblari bahosining o'zaro muvofiqligi va ularning bir biriga yaqinlashuvini ifodalaydi. Bu o'z navbatida pedagogik jamoaning jipslashuviga sabab bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchining o'ziga noto'g'ri baho berishi uning xulq-atvoriga ham salbiy ta'sir qiladi. Agar o'qituvchining o'ziga bergan bahosi past bo'lsa, u o'z oldidagi muammolarini yechishda kuch topa olmaydi. Ularni chetlab o'tishga harakat qiladi. O'z navbatida o'ziga yuqori baxo beradigan o'qituvchi imkoniyatiga mos kelmaydigan muammoni yechishga intiladi. Har ikkala holatda ham yechilishi lozim bo'lgan muammodan uzoqlashish, u haqida noto'g'ri tasavvur uni yecha olmaslikka olib keladi.



Eng muhimi o'ziga baho berishning noadekvatligi o'qituvchining o'z kasbiy taraqqiyotining maqsad va yo'nalishlarini belgilay olmasligiga sabab bo'ladi. O'ziga baho berishdagi nomuvofiqliq o'z shaxsiy sifat va imkoniyatlari haqida noto'g'ri tasavvur hosil bo'lishi, ularni rivojlantirish lozimligini anglamasligi yoki o'zini takomillashtirishda noto'g'ri yo'nalishga sabab bo'ladi. Bunday holatda o'qituvchi o'z shaxsining qaysi jihatlarini rivojlantirishni aniqlay olmay xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadi.

Shunday qilib, o'qituvchining o'zi haqida noto'g'ri tasavvuri uning o'ziga noto'g'ri baho berishiga sabab bo'lib, bu bir tomondan, uning pedagogik faoliyati samoradorligining past bo'lishiga olib kelsa, ikkinchidan uning o'z kamchiliklarini anglashi va tushinib yetishiga to'sqinlik qiladi. Natijada o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini izdan chiqaradi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, o'z-o'zini tashxis qilish ancha murakkab jarayon. Uning natijalarini hisobga olib, pedagogik jaryonga o'zgartirish kiritish mumkin.

O'z-o'zini tashxis qilishning muhim bosqichi-o'qituvchining shaxsiy sifatlari va faoliyatiga o'zi o'zgartirish kiritishi hisoblanadi.

Ikkiyoqlama aloqa asosida bu bosqichda o'qituvchining o'quv – tarbiya jarayonining ishtirokchisi sifatidagi o'zini boshqarish jarayoni yakunlanadi. Korrektsiya jarayonida pedagogik tashxisni avvalgi bosqichlarning o'qituvchi kundalik faoliyatiga amaliy tatbiq qilinishiga erishiladi.

O'zaro aloqani o'quv – tarbiya jarayonida amalga oshirishda o'zini korrektsiya qilishning uch turi qo'llanilib, ular o'zaro aloqaning kibernetikadagi uch xil tizimiga mos keladi. Bular: 1) joriy o'z-o'zini tuzatish: dars jarayonida bevosita amalga oshirilib, o'zgaruvchan pedagogik holat talabidan kelib chiqadi. Bunda vaziyatga qarab korrektsiya darsining samarali o'tishi o'qituvchining ichki kasbiy o'zini anglashiga asoslanadi hamda avvalgi shakllangan o'z-o'zini tashxis asosida amalga oshadi; 2) yakuniy korrektsiya: o'qituvchi pedagogik faoliyatining oxirgi natijalariga asoslanib, bu o'quv-tarbiya jarayonining maqsad va vazifalariga mos kelish darajasiga bog'lik bo'ladi. O'z –o'zini korrektsiyalashning bu shakli ikkiyoqlama pedagogik ta'sirga nisbatan ancha kechikib amalga oshiriladi hamda o'qituvchi faoliyati o'zgarishining umumiy dasturiga qaratilgan



va u yechish lozim bo'lgan pedagogik vazifalar ko'lamini qayta ko'rib chiqish va fahmlashga asoslanadi; 3) oldinni ko'rishga asoslangan korrektsiya; o'qituvchining pedagogik oldinni ko'ra bilish qobiliyatiga asoslanib, pedagogik jarayonni loyihalash, uni o'quv jarayoni boshlanguncha qayta qurish, tahsil oluvchilarning xususiyatlari haqida prognostik axborot va o'z faoliyatining individual xususiyati asosida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, pedagogik tashxisni to'g'ri amalga oshirib, ikkiyoqlama aloqa haqidagi axborot mohiyatini anglash hamda uni aniq amalga oshirish, o'qituvchiga o'z pedagogik faoliyatini o'zi yuqori darajada tashkil etish imkonini beradi. Bu esa uning o'z shaxsi va faoliyatini uzluksiz takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh.A., Ruziyev R.A. Pedagogik diagnostika va pedagogik korrektsiya.-T.: 2010-y.
2. Aminov A.X. Xalk ta'limi xodimlari malaka oshirish tizimini takomillashtirishning tashkiliy – pedagogik asoslari.-Samarkand, 2001.
3. Yodgorov N.,Edgorova L., Mamatov D. – Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari. T.:2015